

Boshqarmaning asosiy vazifalari

Kichik o'rtta biznes va byudjet iste'molchilar bilan ishlash boshqarmasi asosan respublika hududidagi kichik o'rtta biznes va byudjet iste'molchilar bilan ishlaydi. Xususan:

- iste'molchilarga "Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari" talablariga hamda "Tabiiy gazni yetkazib berish va uni qabul qilish to'g'risida"gi shartnoma shartlariga asosan tabiiy gazni yetkazib berilishi;
- iste'molchilarning tabiiy gazdan oqilona foydalanishi;
- iste'molchilar bilan o'z vaqtida shartnomalar rasmiylashtirilishi;
- iste'molchilar tomonidan gaz ta'minoti tashkilotiga kelib tushgan ariza, shikoyat va takliflarini "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq sifatli va o'z muddatida ko'rib chiqish hamda iste'molchilarga asoslantirilgan javoblar yo'llash;
- iste'molchilarga gazdan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish;
- iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz uchun debitor qarzdorliklar paydo bo'lishining oldini olish, ulardan oldindan to'lovlarni undirish;
- shartnoma shartlariga amal qilinishini nazorat qilish, shartnoma shartlari buzilganda, qarzdorlik paydo bo'lganda, tabiiy gazdan noqonuniy foydalanilganda yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakillarining qonuniy talablari bajarilmaganda ularni ogohlantirgan holda gaz tarmoqlaridan o'chirish;
- iste'molchilarga tabiiy gazni yetkazib berish jarayonlarida "Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari" talablariga rioya etilishini nazorat qilish.